	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI	

Ro‘yxatga olindi: №60230100.1.20 2021-yil “__”_____	**“TASDIQLAYMAN”** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2021-yil “__”_____

O‘ZBEK ADABIY TANQIDI TARIXI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	320000- Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

Samarqand – 2021

Fan dasturi "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasining 2021-yil 25-may 10-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tdi.

Kafedra mudiri **prof.Sh.A.Hasanov**

Fan dasturi fakultet uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (22-may 2021-yil. № 8-son bayonnoma).

Fakultet uslubiy kengashi raisi **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi fakultet ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (26-may 2021-yil. № 8-son bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengashi raisi **prof.A.Pardayev**

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti kengashining 2021-yil 24-avgustdagi 1-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor: **prof.A.S.Soliyev**

Fan/modul kodi *O'ATTM 3004*	O'quv yili 2024-2025	Semestr 7	ECTS – Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4

	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami (soat)
1.	O'zbek adabiy tanqidi tarixi	90	90	180

2.

I. Fanning mazmuni

Mazkur fanni o'qitishning asosiy maqsadi - badiiy asami tahlil qilish uchun yo'llanma berish, matn mohiyatini aniq va izchil talqin qilish, jahon adabiy tanqidchiligidagi ichki imkoniyatni ma'lum adabiy tur hamda janrlar misolida asoslab o'rganish, umuman mutaxassisning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi. Shu ma'noda quyidagi vazifalar muhimdir:

Asosiy nazariy qism(ma'ruza mashg'uIotlari)

I-modul. Fanning umumiy mohiyati

1-Mavzu: Kirish. Adabiy tanqid fan sifatida.

"O'zbek adabiy tanqidi tarixi" fani haqida ma'lumot beriladi. Fanining predmeti, maqsadi, vazifalari tushuntiriladi. Adabiy tanqid masalasi keng izohlanadi. Tanqid va baholash tushunchalariga baho beriladi. Fanning tarixi, kelib chiqish jarayoni, tarixiy va zamonaviy taraqqiyotiga izoh beriladi. Fanning ob'ekti, predmeti, vazifalari tushuntiriladi. Muayyan san'at asari yaratilar ekan,uni tushunish va tushuntirishga doimo ehtiyoj tug'ilgan. Shu ma'noda,

2-Mavzu:Adabiy tanqidning o'ziga xos xususiyatlari

Adabiy tanqid fani ham san'atshunoslik fanlari kabi ilmiy-estetik hodisa hisoblanadi. Sharq adabiyotshunosligida tanqid haqidagi nazariy qarashlar borasida ma'lumot beriladi/ Adabiy-tanqidiy asarlarda poetika, semioteka, matn masalasiga e'tibor qaratilayotganligi. Poetic matnni baholash usullari. Hozirgi o'zbek tanqidchiligining davrlari. Sotsiologizm, metod, tahlil, yondashuv yo'nalishlari haqida ma'lumot beriladi. XXI asr tanqidchiligida sinergitika, globallashuv, milliylik singari masalalarga e'tibor qaratiladi.

3-Mavzu. Adabiy tanqid ob'yekti

Fanning o'rganish ob'yekti, uning boshqa fanlar biian aioqadorligi. Adabiy tanqidning mohiyati, lug'aviy ma'nosi. Adabiy-tarixiy jarayonda badiiy adabiyotning tanqid biian uzviylikda rivojlanishi kuzatiladi. Talqinda turli falsafiy bilimlar asosida yondashiladl.

4-mavzu. Adabiy tanqid fanining spetsifikasi

Adabiy tanqid ilmiy-estetik hodisa sifatida. Sharq adabiyotshunosligida tanqid haqidagi nazariy qarashlar borasida ma'lumot beriladi. Adabiy tanqidiy asarlarda poetika, semiotika, matn masalasiga e'tibor qaratilayotganligi. Poetik matnni baholash usullari. Hozirgi o'zbek tanqidchiligining davrlari, sotsiologizni. melod, tahlil, yondashuv yo'nalishlari haqida ma'lumot beriladi. XXI asr tanqidchiligida sinergetika, globallashuv, milliylik singari masalalarga e'tibor qaratiladi.

5-mavzu. O'zbek adabiy tanqidi genezisi

Adabiy tanqidning vujudga kelishi, uning istilohiy ma'nolari va tarixiy taraqqiyoti. Adabiyotshunoslik, badiiy adabiyot va boshqa fanlar biian aloqasi. O'zbek tanqidchiligi tarixida ilmi naqd, ilmi bade' singarilaming o'mi. Mumtoz o'zbek tanqidchiligining sharh, talqin, tafsir, tazkira, hasbi hoi singari janrlari haqida ma'lumot beriladi. Adabiy tanqidning vazifasi tanqid qilish emas, go'zallikni kashf etish ekanligi.

6-mavzu. Yangi o'zbek tanqidchiligining shakllanishi

Yangi o'zbek tanqidchiligining taraqqiyot bosqichlari: xususiyati, vazifasi. Tanqidchilikda janriy izlanishlar. Adabiy tanqid shakllanishida matbuotning o'mi. Mafkura tazyiqidagi tanqid: firqaning adabiyot, tanqid haqidagi qarorlari; sotsrealizm metodi, tanqiddagi parokandalik.

7-mavzu. O'zbek adabiy tanqidchilik janrlari

Adabiy tanqidning janriy tasnifi. Taqriz janrining tabiati. Janming estetik tafakkur taraqqiyotidagi o'mi. Adabiy tanqidiy maqola. Adabiy tanqidiy maqolaning o'ziga xos xususiyati. Adabiy suhbat janriga xos jihatlar.

8-mavzu. O'zbek adabiy tanqidchiligidagi metodlar

O'zbek adabiy tanqideiiiligida biografik metod: hasbi hoi, manoqib, tanqidiy ocherk, adabiy portret, XX asr o'zbek tanqidchiligida badia, xotira singari janrlaniing takomili. Adabiy tanqidda metodlaming o'mi, vazifasi. Struktural, formal metodlarga xos xususiyatlar, Adabiy tanqidda muailif va davr munosabati. Badiiy matn poetikasidagi o'zgarishlar.

9-mavzu. XX asrning 20-30-yillari tanqidchiligi

Tanqidchilikdagi o'zgarishlar: haqiqat, ma'rifat targ'iboti. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munawarqori. Vadud Mahmud ijodida badiiyat masaialarini koriarilishi. Asaming estetik qimmatini baholash. Abdur'auf Fitrat, Abduhamid Choiponning adabiyotshunoslikka doir qarashlari.

10-Mavzu: Adabiy tanqid fanining tarixiy bosqichlari. Alisher Navoiyning adabiyotshunoslikka oid tanqidiy qarashlari

Badiiy adabiyot singari adabiy tanqidiy qarashlar ham uzoq tarixga ega.Og'zaki adabiyot davrida ham tanqidiy qarashlar amalda bo'lgan.Yozma adabiyot shakllanishi bilan uning tarkibida adabiy-estetik fikrlar ham yuritilgan.Sharqda deyarli barcha durdona asarlar tarkibida adabiy tanqidiy qarashlar ham ilgari surilgan.Shoir, she'r,badiiy ijod haqida fikrlar yuritilgan.Sharqning qomusiy allomalari badiiy adabiyot, ijod va ijodkorlik, asar va uning jozibadorligi to'g'risida o'z adabiy-estetik qarashlarini bayon etganlarki, ularning bu fikrlari hozirgi adabiyotshunoslik taraqqiyotida ham muhim o'rin tutib kelmoqda.

11-Mavzu: Professional o'zbek tanqidchiligining yuzaga kelishi

XIX asr oxirlarilari va XX asr boshlari o'zbek adabiyoti taraqqiyotida kechgan o'zgarishlar tarixi bevosita adabiy jrayonning bir qismi bo'lgan adabiy tanqidchilikda ham namoyon bo'ldi. Endi adabiyotshunoslik qatori tanqidchilik ham alohida fan tusini ola boshladi. Ilk bora tanqid so'zi qo'llandi. Yangi yo'nalishdagi adabiy tanqidiy asarlar vujudga kela boshladi. Cho'pon, Fitrat, Vadud Maxmud, Behbudiy, Qodiriy va boshqalar adabiy tanqidning ham yangilanishiga xizmat etadigan asarlar yaratdilar.

12-mavzu. Adabiy tanqidda vulgar sotsiologizm

Tanqidchilikdagi o'zgarishlar: zamonasozlik holati. Sotti Husavn, Olim Sharafiddinov, Abdurahmon Sa'diy kabilar ijodi. O'zbek adabiyotshunosligida mumtoz merosga munosabat. Badiiy asarlarga sinfiyiik nuqtai nazaridan yondashish.

13-mavzu. XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek tanqidchiligi

Adabiy tanqidda munaqqidning o'mi. Badiiylik va mahorat masalasiga e'tiborning ortishi. Estetika, tanqidchilikdagi yangi tamoyillar. Davr tanqidchiligida zamonaviylik, badiiylik muammosi. Tanqidchi dunyoqarashi, yangi inson tasviri uchun kurash. I.Sulton, H.Yoqubov, S.Mamajonov, U.Normatov, N.Karimov, B.Sarimsoqov, A.Rasiilov va boshqalar ijodi. Adabiy tanqidchiiikda shakl va uslubiar xilma-xilligi.

14-Mavzu: A.Fitratning adabiy-tanqidiy qarashlari

O'zbek adabiyotshunosligida A.Fitrat birinchilardan bo'lib, adabiy tanqid, adabiyotshunoslikka oid darsliklar yaratib o'zbek tanqidchiligiga muhim hissa qo'shgan adabiyotshunoslardan biri hisoblanadi. Ma'ruzada fitratning mazkur fanga tegishli bir qator asarlari o'rganiladi.

15-Mavzu: B. Valixo'jaev hayoti va ijodi ("O'zbek adabiyotshunosligi tarixi" darsligi)

Zakiy alloma Botirxon Valixo'jayevning ko'pqirrali faoliyatida Navoiy dahosiga sadoqat sermazmun sahifalarni tashkil etadi. O'zbek navoiyshunoslarining o'rta avlodi borasida gap ketganda, shubhasiz, ro'yxat boshida bu zahmatkash olimning ham nomi

tilga olinadi. Uning "Xamsachilik an'anasining ba'zi-bir xususiyatlari", "Majolis un-nafois" tipidagi bir tazkira haqida", "Navoiyning poetik miniatyuralar yaratish mahorati", "Navoiy va Shayxim Suhayliy", "Navoiy va uning izdoshlari ijodida tuyuq", "Navoiyning mo''tabar dastxati" kabi maqolalarida ulug' o'zbek shoiri ijodining ko'pgina masalalari yoritilgan. Professor B.Valixo'jayevning ilmiy izlanishlari tufayli Alisher Navoiyning avtograf-dastxati topildi.

16-mavzu. Ozod Sharafiddinov hayoti va ijodi

Ozod Sharafiddinovning munaqqidljk faoliyati. • O.Sharafiddinovning she'riyat masalalariga doir qarashlar. Uning adabiy portret janri rivojiga qo'shgan hissasi. "Ijodni anglash baxti", "Dovondagi o'ylar" asarlarida adabiyotshunoslik masalalarining yoritilishi.

17-mavzu. Matyoqub Qo'shjonov hayoti ya ijodi

Matyoqub Qo'shjonovning munaqqidlik faoliyati. Matyoqub Qo'shjonovning qodiriyshunoslik, oybekshunoslik, qahhorshunoslikka qo'shgan hissasi. Munaqqid ijodida badiiylik muammosining yoritilishi.

18-mavzu. Adabiy tanqidda uslub va individual yondashuv

Munaqqid uslubining shakllanishi. Badiiy asarga yondashuv jarayoni. Munaqqid mahorati masalasi. Uslub-ijodkor o'zligi. Tanqidchilikda badiiylik va mahorat masalasiga e'tiboming ortishi.

19-Mavzu. Istiqlol davri tanqidchiligi(90- yillar)

Mustaqillik davri adabiyoti va adabiy tanqid. Inson va jamiyat, zamon va makon, shakl va mazmun tushunchasini ilmiy-estetik, falsafiy jihatdan anglash, tahlil va talqin etish, baholash masalasi. Insonni poetik kashf etish, badiiy asami yangi tamoyillar asosida talqin etish.

Mustaqillik davri tanqidchiligining namoyandalari. Istiqlol davri tanqidchiligida mahorat muammosi. Istiqlol davri tanqidchiligida adabiy turva janrlartalqini. Talqin, tahlildagi yangicha nazariyalaming maydonga kelganligi.

20-Mavzu. Istiqlol davri tanqidchiligi (2000- yillardan keyin)

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarda erkin rivojlanish boshlandi. Bu hol ilm-fan, adabiyot va san'at taraqqiyotida ham o'z ifodasini topdi. Sho'ro davri iskanjasidan va siyosatlashgan mafkura tazyiqidan qutilgan badiiy tafakkur erkin ijod yo'liga o'tdi. Adabiy tanqid badiiy asarlarga milliy g'oya va umumbashariy mezonlar asosida baho bera boshladi. Ayni vaqtda, ana shunday yo'nalishlarda yangi asarlar yaratilishiga ta'sir ko'rsatishni asosiy maqsad qilib qo'ydi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O.Sharafiddinovning "Ijodni anglash baxti", "Dovondagi o'ylar" kitoblari.
2. M.Qo'shjonovning "O'zbekning o'zligi", "Abdulla Qahhor mahorati" kitoblari tahlili.
3. A.Rasulovning "Tanqid, talqin, baholash", "Betakror o'zlik[5]' asarlari.
4. N.Karimovning "Cho'lpon" asari.
5. U.Normatovning "Ijod sehri", "Ijodkoming haroratli so'zi" kitoblari tahlili.
6. I.G'afurovning "Hayo xaloskor" kitobi tahlili.
7. Q.Yo'ldoshevning"Yoniq so'z" asari tahlili.
8. Adabiy tanqid va zamonaviy o'zbek nasri.
9. Adabiy tanqid va hozirgi she'riyat.
10. Adabiy tanqid va adabiy jarayon munosabati.
11. Adabiy tanqidda badiiy asarga estetik yondashuv.
12. Adabiy tanqid va germenevtik tafakkur.
13. Biografik, tarixiy-funksional yondashuv.
14. Ontologiya va qiyosiy yondashuvlar.
15. Tazkira, badia va xotira janri.
16. Vadud Mahmudning munaqqidlik faoliyati.
17. XX asaming 30-yillari tanqidchilari ijodi.
18. Cho'lponning "Adabiyot nadir" asari tahlili.
19. Adabiy tanqidda bahs janri.
20. Istiqlol davri tanqidchiliginig asosiy tamoyillari.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'Ilanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlaming mavzulari:

1. O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya.
2. "Tafakkur" jumalidagi taqrizlar tahlili.
3. "Sharq Yulduzi" jurnalida e'lon qilingan ilmiy maqolalar tahlili.
4. "Yoshlik" jumali dagi yangi asarlarga munosabat bildirish.
5. "Jahon adabiyoti" jurnalida o'zbek va jahon adabiyotiga oid maqola, taqrizlar sharhi.
6. "Kitob dunyosi" gazetasidagi tanqidiy maqolalar.
7. Ozod Sharafiddinovning "Ijodni anglash baxti" to'plamidagi "Adabiyot vashasa-millatyashar", "Istibdod qurboni yoxud o'zligidan niahrum etilgan shoir" maqolalari talqlni.

	8. "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilingan "Yangilanish ehtiyoji" suhbati bilan tanishish. 9. Abdulla Qodiriy ijodiga bag'ishlangan maqolalar tahlili. 10. Muhammad Yusuf ijodiga bag'ishlangan maqolalar talqlni. 11. A.Rasulovning "lste'dod va e'tiqod" asarida O.Sharafiddinov xarakteri. 12. "So'z latofati" kitobida Erkin Vohidovning adabiy-estetik qarashlari. 13. P.Qodirovning adabiy-estetik qarashlari ("O'ylar" to'plami asosida) 14. B.Karimovning "Ruhiyat alifbosi" asarida adabiyotshunoslik muammolarining yoritilishi.
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Glaballashuv davrida adabiyotning roli va vazifasi, hozirgi adabiy jarayondagi o'zgarishlar, badiiylik mezonlari, badiiyat tarkibidagi o'ziga xos talqin xususiyatlari bilan bir qatorda, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik va jahon adabiyotidagi etakchi tamoyillarning adabiy tanqiddagi o'rni va vazifalarini, janrlar tarkibidagi poetik o'zgarishlarni o'rganish, mustaqil xulosalar chiqarish va tahlil etishdan iborat. Bu haqida tasavvurga ega bo'lishi; • Fanning predmeti, maqsad vazifalari va metodologiyasini bilish, bilimlarning asosiy yo'nalishlarini adabiy tanqiddagi o'zgarishlarni tahlil eta olish. • Istiqlol yillarida shakllangan badiiylik tarkibidagi o'zgarishlar, ungagi inson konsepsiyasining qo'yilishi, tur va janrlar o'rtasidagi sintizlashuv jarayonlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishlari lozim. • Bugungi adabiyotda kechayotgan jarayonlarni adabiy tanqidiy jihatdan nazardan o'tkaza olish, o'zbek adabiyotining bugungi holatini dunyo adabiyotidagi poetik o'zgarishlariga qiyoslash va ulardan xulosalar chiqara olish. • Bugungi kunda adabiy tanqidchilikda vujudga kelayotgan muammolar yechimi badiiy asarlani to'g'ri tahlil qilish tamoyillarini o'rganish va adabiy tanqidning o'rnini ko'rsata olish. Hozirda yozilayotgan badiiy asarlani tahlil qilish tamoyillarini o'rganish va adabiy tanqidning o'rnini ko'rsata olish.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • Ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko'rgazmali qurollar; • Kompyuter; • Internet yangiliklari; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:**

	Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi (X-X1X asrlar). - T.: O'zbekiston, 1993. 2. Rasulov A. Tanqid, tahlil, baholash. - T.: Fan, 2006. 3. Nazarov B. va boshqalar. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. - T.: Cho'lpon. NMIU, 2012. **Qo'shimcha adabiyotlar** 4. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. -T.: G'.G'ulom NMU, 2015. 5. Rasulov A. Badiiylik - bezavol yangilik. - T., 2002. 6. O'zbek adabiy tanqidi (Antologiya). - T,, 2011. 7. Qahramonov Q. Adabiy tanqid va bolalar adabiyoti. - T.: Fan, 1991. 8. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2015. – 354 B. 9. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. – Toshkent, Fan, 2007. – 259 B 10. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. – Toshkent, Akademnashr, 2013. – 335 B. 11. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. – Toshkent, Yangi nashr, 2010. – 362 B. 12. Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. – Toshkent, O'qituvchi, 2012. – 327 B. Internet saytlari 13.vvww.literature.uz 14. www.zivonet.uz 15. www.natlib.uz 16. www.ziyouz.com ____/ 17. www.turonlib.uz
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy кengashining 2021-yil 24-avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ul**: A.H.Toshpo'latov – SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
9.	**Taqrizchilar:** Sh.Hasanov - SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (ichki) G.Umurova – SamDCHTI dotsenti, filologiya fanlari doktori (tashqi)